IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	



KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Dotsent, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: otabek_0791@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy samaradorligi statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesning bandlik, yalpi ichki mahsulot, sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiya, eksport va importdagi ulushi yillar kesimida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, statistik tahlil, bandlik, YaIM, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the economic efficiency of small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan based on statistical indicators. The study examines the share of small business in employment, gross domestic product, industry, agriculture, investment, exports, and imports over time.

Key words: small business, private entrepreneurship, economic efficiency, statistical analysis, employment, GDP, regional development.

Аннотация. В статье на основе статистических показателей проведён анализ экономической эффективности малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. Исследованы доля малого бизнеса в занятости, валовом внутреннем продукте, промышленности, сельском хозяйстве, инвестициях, экспорте и импорте.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономическая эффективность, статистический анализ, занятость, ВВП, региональное развитие.

KIRISH

Raqobat sharoitida mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda tadbirkorlik, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati hamda uning samaradorligi muhim omillardan biri sanaladi.

Tadbirkorlik keng ma'noda shaxsiy manfaatga asoslangan, subyekt oldida turgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, uning bevosita ishtirokida shaxsiy omillarga tayangan holda amalga oshiriladigan faoliyat sifatida qaraladi. U oila xo'jaligini yuritishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan aqliy va amaliy faoliyatni ifodalaydi. Tor ma'noda esa tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy sohaning turli darajalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni sohibkorlik faoliyatini anglatadi. Shu sababli ham istiqlolning ilk kunlaridan boshlab respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlashda respublikamiz hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi bandlikni oshirish, aholining daromad manbalarini kengaytirish, hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1], [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni, ishlab chiqarish hajmini oshirishdagi roli hamda yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, G'oyibnazarov B.K. va Rahmonov H.O. hamda boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda kichik biznes subyektlarining YalMdagi ulushi, bandlik darajasiga ta'siri va hududiy rivojlanishdagi roli statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Mualliflar kichik biznes samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, ish o'rinlari soni va iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarini asosiy mezonlar sifatida belgilaganlar [1].

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy adabiyotlarda muhim manba sifatida qaraladi. Xususan, Prezident farmon va qarorlarida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, biznes muhitini yaxshilash hamda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan [2]. Mazkur hujjatlar kichik biznes rivojlanishining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [3].

Shuningdek, "Harakatlar strategiyasi" doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, bandlikni oshirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish vazifalari belgilangan bo'lib, ushbu strategik hujjat ilmiy tadqiqotlarda muhim nazariy va amaliy asos sifatida foydalanilmoqda [3]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini empirik jihatdan baholashda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan statistik to'plamlar va rasmiy ma'lumotlar asosiy axborot bazasini tashkil etadi. "O'zbekiston raqamlarda" statistik to'plamida kichik biznesning YalM, sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiya va bandlikdagi ulushi yillar kesimida keltirilib, sohaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi [4].

Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni hamda ularning demografik holati tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar kichik biznes samaradorligini baholashda ishonchli statistik manba hisoblanadi [5], [8]. Mehnat bozori va bandlik masalalariga bag'ishlangan statistik to'plamlarda kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi roli alohida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, kichik tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar sonining yillar kesimida o'sishi, uning umumiy bandlikdagi ulushi va mehnat bozoriga ta'siri statistik jihatdan tahlil qilingan [6]. "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik" statistik to'plamida kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, faoliyat ko'rsatish darajasi, yangi tashkil etilgan subyektlar hamda ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari yoritilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega [7].

Umuman olganda, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini baholashda bandlik, YalM, investitsiya, eksport va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Ushbu manbalar mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy va axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi [1]–[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy samaradorligini baholash statistik tahlil usullariga asoslangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi [1], [3].

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bag'ishlangan mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Xususan, kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini baholashda uning yalpi ichki mahsulot, bandlik, investitsiya va eksportdagi ulushi asosiy indikatorlar sifatida qabul qilindi [1], [2].

Tadqiqotda empirik axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, "O'zbekiston raqamlarda", "O'zbekistonda mehnat va bandlik", "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik" kabi statistik to'plamlar ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu manbalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni, bandlikdagi ulushi, YalM va hududiy mahsulotdagi hisssasi yillar kesimida tahlil qilindi [4]–[8].

Tadqiqot jarayonida quyidagi iqtisodiy-statistik usullar qo'llanildi:

– taqqoslash usuli yordamida kichik biznes ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha o'zgarishi va o'sish sur'atlari baholandi;



– dinamik qatorlar tahlili orqali kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlanildi;
– tarkibiy tahlil usuli yordamida kichik biznesning YaIM, sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiya, eksport va bandlikdagi ulushi o'rganildi;
– nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar yordamida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorlik darajasi baholandi [4], [6], [7].

Shuningdek, hududlar kesimida tahlil o'tkazish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyatlar bo'yicha rivojlanish darajasi, ularning iqtisodiy faolligi va yashovchanlik koeffitsientlari aniqlanildi. Bu esa hududiy nomutanosibliklarni aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi [5], [8].

Tadqiqotda mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, olingan statistik natijalar asosida umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi [1], [3].

Umuman olganda, tanlangan metodologiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar berishga xizmat qiladi [1]–[8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda doimiy aholi soni 36 799,8 ming kishini tashkil etib, ulardan mehnat resurslari soni 19 739,6 ming kishi yoki jami aholining 53,6 foiziga teng. Iqtisodiyotda band bo'lgan aholining o'rtacha soni esa 14 014,2 ming kishini tashkil etib, bu ko'rsatkich umumiy aholining 38,1 foiziga to'g'ri keladi. Doimiy aholi sonining o'sishi bilan bir qatorda iqtisodiyotda band bo'lgan aholi sonida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2022-yilda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 101,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 102,2 foizga yetgan [5], [6].

Mehnat bozorini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri iqtisodiy faol, mehnatga layoqatli aholining ishsiz qolish darajasi hisoblanadi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha 300 million kishidan ortiq aholi ishsiz hisoblanadi, bu esa mehnat bozorida bandlik muammolarining global xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi [6].

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etmoqda. Ushbu holat mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi [5], [8].

Shuningdek, mamlakatimizda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi 5 576,3 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 114,2 foizga oshgan. Bu holat iqtisodiy faollikning ortib borayotgani va mehnat bozorida daromadlar dinamikasining ijobiy yo'nalishda shakllanayotganidan dalolat beradi [4], [6].

O'zbekiston Respublikasida band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bandlikni ta'minlashdagi o'рни va ulushi tahlil qilinadi [5], [7].

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10,1	10,0	10,3	10,1
Sanoat	20,1	19,5	18,8	17,8
Qurilish	9,8	9,3	8,8	8,6
Savdo	31,9	33,8	34,8	35,7
Tashish va saqlash	4,1	3,9	3,9	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,4	7,2	7,1	7,1
Axborot va aloqa	2,3	2,2	2,2	2,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish	1,8	1,9	1,8	1,9
Boshqa faoliyat turlari	12,5	12,2	12,3	12,4



Tahlillarimiz ko'rsatishicha, 2023-yilda mamlakatimizda band aholi tarkibi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada farqlangan. Xususan, band aholining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida jamlanib, ushbu sohaning ulushi 25,9 foizni tashkil etgan. Sanoat tarmog'ida band bo'lganlarning ulushi 11,3 foizga teng bo'lgan bo'lsa, ta'lim sohasida 9,9 foiz, savdo sohasida 7,7 foiz hamda qurilish tarmog'ida 7,5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida agrar sektorning bandlikni ta'minlashdagi yetakchi rolini, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning savdo va qurilish tarmoqlarida yuqori faollikka ega ekanligini ko'rsatadi [5], [6].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YaIM) hamda yalpi hududiy mahsulot (YHM) dagi ulushi hududlar kesimida 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, mazkur jadval ma'lumotlari asosida kichik biznesning iqtisodiy samaradorligi va hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissassi tahlil qilinadi [4], [7].

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining YaIM (YaHM)dagi ulushi, foizda

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
O'zbekiston Respublikasi	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	51,8	51,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	63,6	58,5	57,0	56,3	57,8	56,4	56,6	58,7
Wiloyatlar								
Andijon	83,6	80,2	73,1	69,6	69,4	71,8	69,5	66,0
Buxoro	79,3	79,9	80,9	74,3	75,3	75,4	74,1	71,7
Jizzax	84,2	85,6	86,2	83,1	83,4	81,2	78,4	73,4
Qashqadaryo	66,7	73,6	72,7	70,8	71,1	69,0	68,1	68,4
Navoiy	50,4	49,4	42,3	30,7	26,6	27,1	26,8	26,0
Namangan	79,8	80,8	80,5	75,9	74,9	73,5	72,8	72,8
Samarqand	81,2	82,6	80,8	75,2	74,8	73,4	71,4	72,8
Surxondaryo	79,1	79,5	81,2	78,8	77,9	77,3	76,8	75,9
Sirdaryo	75,9	77,9	77,8	69,8	70,9	69,2	65,4	63,6
Toshkent	67,9	65,0	58,9	51,3	50,2	46,8	46,5	48,7
Farg'ona	73,9	71,7	71,3	69,3	68,8	69,9	68,9	69,5
Xorazm	79,4	79,1	79,1	76,4	76,3	73,9	71,6	69,7
Toshkent sh	68,1	63,0	64,8	53,1	51,3	48,1	46,8	49,8

Tahlillarga ko'ra, 2023-yilda respublika bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,2 foizni tashkil etgan. So'nggi yillarda hududlar kesimida mazkur ko'rsatkichning sezilarli farqlanishi kuzatilmoqda. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida 79,9 foiz, Jizzax viloyatida 73,4 foiz, Namangan va Samarqand viloyatlarida esa 72,8 foizni tashkil etgan. Aksincha, mazkur ko'rsatkichning eng past darajasi Navoiy viloyatida 26,0 foiz, Toshkent viloyatida 48,7 foiz va Toshkent shahrida 49,8 foizga teng bo'lgan [4], [5].

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan respublika miqyosida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 64,2 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 97,0 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining 49,5 foizi hamda chakana savdo aylanmasining 82,2 foizi to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkichlar kichik biznesning real sektor va iste'mol bozoridagi yetakchi rolini yaqqol namoyon etadi [4], [7].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar eksporti ham yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Xususan, 2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 100,9 mln AQSh dollari miqdorida tovar va xizmatlar eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 7 492,4 mln AQSh dollarini tashkil etib, nisbiy hisobda 2,4 barobarga oshgan. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining import hajmi ham sezilarli darajada ortgan bo'lib, 2020-yilda 10 943,3 mln AQSh dollarini tashkil etgan import hajmi 2023-yilda 18 794,0 mln AQSh dollariga yetgan yoki 7 851 mln AQSh dollariga, ya'ni 171,7 foizga oshgan [5], [8].

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lgan aholi soni ham izchil ravishda ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilda mazkur sohada band bo'lganlar soni 9 866,7 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 10 373,3 ming kishiga yetib, bazis yiliga nisbatan



o'sish sur'ati 101,7 foizni tashkil etgan. 2023-yilda iqtisodiyotda umumiy band bo'lgan aholi tarkibida kichik tadbirkorlikda band bo'lganlarning ulushi 74,0 foizga teng bo'lgan [6], [7]. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining dinamik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 436 981 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib 614 897 taga yetgan. Natijada mazkur davr mobaynida ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 177 916 taga oshib, 140,8 foizni tashkil etgan [7], [8]. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, ro'yxatdan o'tgan barcha kichik korxonalar va mikrofirmalar amalda faoliyat yuritmaydi. Bunga ishlab chiqarish jarayonining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, xom ashyo resurslarining cheklanganligi, moliyaviy qiyinchiliklar, marketing tizimining sustligi, ishchi kuchi qo'nimsizligi va boshqa omillar sabab bo'lmoqda. Shu bois, statistik tadqiqotlar olib borishda asosiy e'tiborni aynan faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi [1], [7].

2021-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 411 203 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyat yuritgan bo'lib, bu ro'yxatdan o'tgan subyektlarning 94,4 foiziga teng bo'lgan. 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 417 080 taga yetib, ularning ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonidagi ulushi 95,0 foizni tashkil etgan. Natijada, 2023-yilda 2020-yilga nisbatan faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarining o'sish sur'ati 101,4 foizga teng bo'lgan [7], [8].

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi tashkil etilishi dinamikasida ayrim pasayish holatlari ham kuzatilmoqda. Jumladan, 2021-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 93 214 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 86 030 taga teng bo'lib, 92,2 foizga kamaygan. Ushbu holat kichik biznes subyektlarining barqarorligini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [7].

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik korxona va mikrofirmalarning (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) demografik holati dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	O'zgarishi, %
1. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik	436981	488936	555971	614897	140,7
2. Faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik	411203	462834	523556	417080	101,4
3. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonidagi ulushi, foiz	94,1	94,7	94,2	67,8	72,0
4. Kichik korxonalar va mikrofirmalardagi ro'yxatdagi xodimlarning o'rtacha yillik soni, ming kishi	9865,7	10080,6	10131,1	10373,3	105,1
5. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik	93214	98886	90177	86030	92,2

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining barqaror rivojlanishini innovatsion va moliyaviy omillarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, kelgusida mazkur sohaning rivojlanishida asosiy ustuvor yo'nalish sifatida kichik tadbirkorlikning innovatsion iqtisodiyotga integratsiyalashuvi hamda kichik biznesning bilimlarga asoslangan iqtisodiyot tamoyillari asosida shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining yaratish, tugatish va sof yashovchanlik koeffitsientlari

Yil	Kichik tadbirkorlik subyektlarining yaratilish koeffitsienti, %	Kichik tadbirkorlik subyektlarining tugatilish koeffitsienti, %	Kichik tadbirkorlik subyektlarining sof yashovchanlik koeffitsienti, %
2010	18,5	7,3	11,2
2011	21,1	14,7	6,4
2012	19,6	7,4	12,2
2013	9,9	7,3	2,6
2014	12,1	7,1	5,0



2015	11,4	6,6	4,8
2016	13,9	11,2	2,7
2017	15,7	9,0	7,7
2018	17,7	5,6	12,1
2019	26,2	4,4	21,8
2020	22,6	2,3	20,3
2021	21,4	2,8	18,6
2022	17,2	2,1	15,1
2023	20,6	3,2	17,4

Tahlillarimizdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining yaratilish, tugatilish va sof yashovchanlik koeffitsientlari orasida katta o'zgaruvchanlik (variatsiya) mavjud. Masalan, 2010-yilda 18,5 foiz yangi kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, 9,9 foizga tushib qolgan va yana 2019-yildan buyon yuqori sur'atlarga ega bo'lmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tugatilish holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010-yilda 7,3 foiz, 2023-yilga kelib, 3,2 foiz korxonalar yopilgan. Natijada mamlakatimizda 2023 yilda kichik tadbirkorlik korxonalari sof yashovchanlik koeffitsienti 17,4 foizni tashkil etgan.

5-jadval. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining faollik darajasi (1-yanvar holatiga)

Hududlar	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi, %			
	2020 y	2021y	2022 y	2023 y
O'zbekiston Respublikasi	94,1	94,7	94,2	67,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	96,6	95,0	95,2	77,4
Viloyatlar:				
Andijon	88,5	92,0	92,6	54,3
Buxoro	95,1	93,7	93,6	77,6
Jizzax	95,0	94,1	92,7	61,8
Qashqadaryo	97,0	95,6	93,4	66,8
Navoiy	94,1	96,3	95,2	75,1
Namangan	97,1	96,6	96,2	64,2
Samarqand	94,6	94,4	94,0	68,0
Surxondaryo	96,1	94,7	94,6	64,5
Sirdaryo	93,7	92,8	92,8	62,5
Toshkent	87,6	91,4	91,1	65,2
Farg'ona	97,1	96,1	94,5	65,7
Xorazm	93,5	94,3	93,1	75,3
Toshkent sh	95,4	96,2	96,3	70,9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan yillarda kichik biznes subyektlari sonining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan. Tahlil qilingan davrda deyarli barcha viloyatlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining yashovchanlik darajasi nisbatan yuqori saqlanib qolgan hamda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur holat hududlarda kichik tadbirkorlik faoliyatining institutsional va iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi [7], [8].

Biroq ayrim hududlarda, xususan, Navoiy viloyatida teskari holat kuzatiladi. Ushbu hududda yillar davomida kichik biznes subyektlarining yashovchanlik darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yilga kelib faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi 75,1 foizni tashkil etgan. Ya'ni, mazkur davrda Navoiy viloyatida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlarining 24,9 foizi o'z faoliyatini tugatgan yoki vaqtincha to'xtatgan. Bu holat hududiy iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish va resurs bazasining cheklanganligi hamda tarmoqlar tarkibidagi o'ziga xosliklar bilan izohlanadi [7].

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy holatini tahlil qilishda Milliy statistika qo'mitasi hamda uning hududiy bo'limlari tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistik ko'rsatkichlar asosiy



axborot bazasi hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalaridagi ulushi aniqlanib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ulushi 6-jadvalda keltirilgan [5], [8].

6-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi (foizda)

Yillar	YalIM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Eksport	Import
2000	31,0	12,9	38,4	49,7	10,2	22,8
2001	33,8	12,5	40,4	51,8	9,3	26,7
2002	34,6	15,4	42,0	53,5	7,5	24,9
2003	35,0	10,8	39,9	56,7	7,3	33,7
2004	35,6	11,0	49,6	60,3	7,3	32,7
2005	38,2	10,0	50,9	64,8	6,0	33,7
2006	42,1	10,9	52,1	69,1	11,2	34,2
2007	45,7	13,2	55,4	72,1	14,8	32,0
2008	48,2	14,6	58,4	73,1	12,4	35,7
2009	50,1	17,9	42,4	73,9	14,6	42,5
2010	52,5	26,6	52,5	74,3	13,7	35,8
2011	54,0	28,6	67,6	75,1	18,8	34,3
2012	54,6	29,7	70,0	75,6	14,0	38,6
2013	55,8	33,0	70,6	76,7	26,2	42,4
2014	56,1	36,8	69,5	77,6	27,0	45,4
2015	62,9	40,6	66,7	77,9	27,0	44,5
2016	64,9	45,3	66,9	78,2	26,0	46,8
2017	63,6	41,2	64,8	78,0	22,0	53,6
2018	59,4	37,4	73,2	76,3	27,2	56,2
2019	56,6	30,1	73,1	75,6	24,2	53,5
2020	57,5	27,9	72,5	74,5	20,5	51,7
2021	56,9	27,4	72,5	74,5	20,0	45,3
2022	54,6	26,0	71,5	73,9	29,6	49,4
2023	54,5	27,0	74,3	74,0	30,1	48,6
2023 / 2000 (nisbatan, +,-)	23,5	14,1	35,9	24,5	19,9	25,8

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Jumladan, 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalIMdagi ulushi 31,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 54,5 foizga yetib, o'sish sur'ati 165,1 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi roli tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi [4], [7].

Tarmoqlar kesimida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi ham izchil o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2000-yilda sanoat tarmog'ida KBXT ulushi 12,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 27,0 foizga yetib, 14,1 foiz punktga oshgan. Qurilish tarmog'ida esa kichik biznesning o'rni yanada yuqori bo'lib, mazkur sohadagi ulush 35,9 foiz punktga oshgan. Natijada, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qurilishdagi ulushi sanoat tarmog'iga nisbatan ancha yuqori ekanligi kuzatilmoqda [7], [8].

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi ham sezilarli darajada kengaygan. Tahlillarga ko'ra, mazkur ko'rsatkich 2000–2023-yillarda qariyb 3,0 barobarga yaqin oshgan bo'lsa-da, 2023-yilda umumiy eksport hajmidagi ulushi 30,1 foizni tashkil etgan. Ushbu holat kichik biznesning eksport salohiyati hali to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi. Shu bois, kelgusida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi ulushini hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi [4], [8].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz va uning hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda, avvalo, intensiv omillar hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, tuman va shaharlarda kichik tadbirkorlik faoliyatini iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga kengroq yo'naltirish, hududlar o'rtasida kichik biznes subyektlari rivojlanishidagi mavjud tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda kichik biznes sohasida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni kuchaytirish zarur. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarda samarali realizatsiya qilish imkonini beruvchi maxsus tashqi savdo uylarini rivojlantirish, sifatni boshqarishning xalqaro tizimlarini amaliyotga joriy etish, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda eksportga chiqarilayotgan yuklarga transport-logistika xizmatlari ko'rsatish samaradorligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlash, ularning eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oyibnazarov, B. K., Rahmonov, H. O., & boshqalar. (2008). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari (190 b.). Toshkent: FAN.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2016-yildagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-sonli farmoni. (2016). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3039311 LEX.UZ>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.11.2019-yildagi "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4525-sonli qarori. (2019). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4602230 LEX.UZ>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. (2017). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.
5. O'zbekiston raqamlarda: Statistika to'plam. (2024). Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston RaQamlarda <https://andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda> Andijon Statistics Department
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari (2024 yil). Milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/nashrlar/3656-o-zbekistonda-kichik-tadbirkorlik>
7. O'zbekistonda mehnat va bandlik: 2020–2023 yy. statistik to'plam. (2024). Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi.
8. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik: Statistika to'plam. (2021). Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik <https://stat.uz/uz/nashrlar/3656-o-zbekistonda-kichik-tadbirkorlik>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>